Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

**2018 yil yanvar- fevral holatiga**

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1384 taga o'sdi.**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar ning ulushi 11,4 foizga kamaygan.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **454 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-fevral oyida Samarqand viloyatida 750 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65 taga kamdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,8 % ga oshgan hamda ularning soni 296 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 309 ta (1,0 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21584 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Samarqand shahrida (32,1%), Urgut (9,3%), Pastdarg'om (7,6%) va Samarqand (6,6 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda*



## *Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi*

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)*

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|---|---|---|---|---|
| | birlik | jamiga nisbatan % | birlik | jamiga nisbatan % |
| Samarqand viloyati | **22952** | **100.0** | **21584** | **100,0** |
| Samarqand sh. | 7348 | 32,0 | 6924 | 32,1 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 771 | 3,4 | 746 | 3,5 |
| tumanlar | | | | |
| Oqdaryo | 858 | 3,7 | 800 | 3,7 |
| Bulung'ur | 864 | 3,8 | 817 | 3,8 |
| Jomboy | 733 | 3,2 | 679 | 3,1 |
| Ishtixon | 1136 | 4,9 | 1057 | 4,9 |
| Kattaqo'rg'on | 1081 | 4,7 | 1010 | 4,7 |
| Qo'shrabot | 516 | 2,2 | 498 | 2,3 |
| Narpay | 868 | 3,8 | 844 | 3,9 |
| Payariq | 1221 | 5,3 | 1145 | 5,3 |
| Pastdarg'om | 1802 | 7,9 | 1636 | 7,6 |
| Paxtachi | 589 | 2,6 | 544 | 2,5 |
| Samarqand | 1555 | 6,8 | 1435 | 6,6 |
| Nurobod | 648 | 2,8 | 570 | 2,7 |
| Urgut | 2053 | 8,9 | 2006 | 9,3 |
| Tayloq | 909 | 4,2 | 873 | 4,0 |

### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,0 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 6,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,5 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidan 22,5 % savdoda, 17,8 % sanoatda, 8,1 % qurulishda, 7,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 % tashish va saqlashda, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 1,8 % axborot va aloqa va 31,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,**
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) % da*




***Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi***
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda*



2018 yil yanvar-fevral oylarida 750 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga qaraganda 8,6 % ga kamdir. Eng ko’p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahrida (237 ta), Samarqand tumanida (73 ta), Urgutda (52 ta) va Ishtixon tumanlarida (46 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachida (12 ta), Narpayda (15 ta) hamda Qush-rabot (17 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni,** birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha esa eng ko’pi savdoda (174 ta), sanoatda (164 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi va qurilishda(97 ta) tashkil etil-gan. Eng kam esa tashish va saqlashda ( 21 ta) va axborot va aloqada (13 ta) tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni,** birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda va boshqa faoliyat turlarida (-1,4 bandga), savdoda (-0,5 band ga ), kamaygan bo'lsa, sanoatda (+1,5 band), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,8 band), tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,4 band) qurilish, axborot va aloqada (+0,1 band) ulushining o'sishi kuzatildi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi,** % da

| Iqtisodiy faoliyat turlari nomi | 01.03.2018 y. | 01.03.2017 y. | farqi (+-) |
|---|---|---|---|
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2,3 | 3,7 | -1,4 |
| Savdo | 22,5 | 23,0 | -0,5 |
| Sanoat | 17,8 | 16,3 | 1,5 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 7,0 | 6,2 | 0,8 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 5,8 | 5,4 | 0,4 |
| Tashish va saqlash | 3,3 | 3,0 | 0,4 |
| Qurilish | 8,1 | 8,0 | 0,1 |
| Axborot va aloqa | 1,8 | 1,7 | 0,1 |
| Boshqa turlari | 31,3 | 32,7 | -1,4 |

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 16685 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4631 ta, oilaviy korxonalar – 1676 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9866 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 28 ta va boshqa tashkiliy-huquqiy shakillarda 484 tani tashkil etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 289 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 42 taga yoki 17 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'r-satayotgan korxonalardan 224 tasi qo'shma korxonalar, 65 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda






## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o’sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 146 ta (50,5 %), Urgut tumanida 38 ta (13,1 %) va Jomboy 23 ta (7,9 %) tumani hissalariga to’g’ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo’shrabotda 1 ta (0,3 %), Kattaqo’rg’on va Payariqda 2 ta (0,7 %) hamda Paxtachi, Ishtixon va Narpay 3 ta (1,1%) tumanlari hissalariga to’g’ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo’lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida  ushbu ma’lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko’rsak eng ko’p sanoatda 194 ta (67,8 %), savdoda 39 ta (12,4 %), boshqa turlarida esa 18 tani  (6,3 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (1,1 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va  qurilishda 4 ta (1,4 %), tashish va saqlashda 5 ta (1,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 ta (2,5%) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 15 tani (5,3%) tashkil qilgan. Shundan ko’rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga  to’gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa axborot va aloqa, qurilish hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish faoliyat turlariga to’gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital  ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha ulushi,** % da




2018 yilning yanvar-fevral oylarida  xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 11 tani tashkil qilgan. Bu ko’rsatkich esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga ko’paygan yoki 1,7 baravarga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan savdoda 6 ta, qurilishda 2 ta, sanoat, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi  hamda yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlarda  1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  yangi tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda










## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 16562 tani tashkil qilgan. Bu ko’rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 6,4 % ga oshgan. Faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi ya’ni 5736 tasi (34,6 %) Samarqand shahriga, 1600 tasi (9,6 %) Urgut, 1177 tasi (7,1 foizi) Samarqand hamda 1216 tasi (7,3 foizi) Pastdarg’om tumanlari hissalariga to’gri keladi.

.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 16562 kichik korxona va mikrofirmalarning 4820 tasi (29,1 %) – savdoda, 3807 tasi (23,0 %) - sanoatda, 1753 tasi (10,6 %) - qurilishda, 1475 tasi (8,9 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida, 1236 tasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 694 tasi (4,2 %) - tashish va saqlashda, 382 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 391 tasi (2,3 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, shuningdek 2004 tasi (12,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-fevral oylarida 705 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,3 % ga kamdir. Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahrida (221 ta), Samarqand tumanida (71 ta), Payariqda (46 ta) va Pastdarg’om (44 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Paxtachida (12 ta) va Qo’shrabot tumanida esa (8 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko’p sanoatda (194 ta), savdoda (174 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi va qurilishda (97 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (13 ta), tashish va saqlashda (21 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (27 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da





## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 mart holatiga 1734 tani tashkil etib, ulardan 1676 tasi yoki 96,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **49,4** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

**Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi,** birlikda






Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 35,3 % yoki 591 tasi sanoatda, 26,1 % yoki 437 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlarida, 16,1 % yoki 270 tasi savdoda, 9,8 % yoki 164 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida, 1,1 % yoki 19 tasi qurilishda, 1,8 % yoki 31 tasi axborot va aloqada, 0,8 % yoki 14 tasi tashish va saqlashda, 0,4 % yoki 6 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda hamda 8,6 % yoki 144 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha ulushi,** % da





**Samarqand viloyat statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni yuritish bo’limi**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma’lumotlari asosida tayyorlangan**

**Nashr uchun mas’ul:** **F.Zulfuqorov**
(0371) 230-85-42,43